



## Methods of formation of legal immunity of children with hearing impairment

Muattar SAITOVA<sup>1</sup>

Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received February 2023

Received in revised form

15 February 2023

Accepted 15 March 2023

Available online

25 April 2023

**Keywords:**

law,

state and society,

children with special needs,

convention,

legal immunity,

rule of law,

equal rights.

### ABSTRACT

In this article, there are opinions and considerations about hearing-impaired children finding their place in society and knowing their rights. In addition, the article provides a brief description of hearing-impaired children and detailed information on measures to increase their legal immunity.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2-pp132-135>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda huquqiy immunitetini shakllantirish usullari

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

huquq,

davlat va jamiyat,

alohida yordamga muhtoj

bolalar,

konvensiya,

huquqiy immunitet,

qonun ustuvorligi,

huquq tengligi.

Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topishi va o'z huquqini bilishi to'g'risida fikr va mulohazalar yuritilgan. Bundan tashqari, maqolada eshitishida nuqsoni bor bolalarga qisqacha tavsif berilib, ularning huquqiy immunitetini oshirish chora-tadbirlari haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etilgan.

<sup>1</sup> Master degree student, Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi, E-mail: [muattar181297@gmail.com](mailto:muattar181297@gmail.com)

# Методы формирования правового иммунитета у детей с нарушением слуха

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

закон,  
государство и общество,  
дети с особыми  
потребностями,  
условность,  
правовой иммунитет,  
верховенство закона,  
равноправие.

В данной статье представлены мысли и соображения о том, как слабослышащие дети могут найти свое место в обществе и узнать о своих правах. Кроме того, в статье приводится краткое описание детей с нарушением слуха и подробная информация о мерах, направленных на повышение их правовой защищённости.

## KIRISH

Psixofizik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni jamiyatga ijtimoiy moslashuvi va integratsiyasi maxsus ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi har qanday nuqson uning umumiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, boshqa kamchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Eshitish analizatorining buzilishi nutq va bolaning umumiy rivojlanishida sezilarli buzilishlarga olib keladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti oldiga davlat va jamiyat qo'yayotgan maktabgacha ta'limning maqsadi va vazifalaridan biri – bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda, bolaning imkoniyatlarini ochish va rivojlantirish, ularning tug'ma qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. Jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar bugungi kunda yangi sharoitlarga tez moslashishni talab qiladi.

O'zbekiston bolalar huquqlari to'g'risidagi Xalqaro Konvensiyani ratifikatsiya qilgan hamda BMTning bola huquqlari qo'mitasi tavsiyalarining bajarilishi yuzasidan Milliy harakat dasturini qabul qilgan davlat sifatida har bir bolaning tug'ilgan onidan boshlab, oila muhitida tarbiyalanishi, uning salomatligi, aqliy va jismoniy kamoloti uchun barcha shart-sharoitlarning yaratilishi davlat ahamiyatiga molik masala ekanligini amalda ta'minlashga katta ahamiyat berib kelmoqda. Shu ma'noda "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi ana shu e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir amaliy ifodasidir.

Eshitishning buzilishi eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarda tafakkur rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ammo intellekti har qanday yoshda saqlanib qoladi. Demak, kar bolaning potentsial imkoniyatlari eshitishi me'yorda bo'lgan bola bilan bir xil. Bu imkoniyatlarni amalga oshirishga faqat bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish orqali cheklanib qolmasdan, nafaqat eshitish va nutqni rivojlantirishga, balki umuman butun bilish faoliyatini shakllantirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan o'quv jarayonida erishiladi. L.S. Vigotskiyning fikricha – "Jamiyatdagi karlik muammosi – ijtimoiy muammo" dir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Kundalik hayotda jonli ishtirok etadigan, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilgan bola faol rivojlanadi. Uning nutqi shakllanadi, atrof olam haqidagi tasavvurlari yuzaga keladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida kar va zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar ularning yoshiga mos bilim va ko'nikmalarni egallashi, maktabga tayyorlanishida ko'maklashadi, intellektual faoliyatini rivojlantiradi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar muammolari bilan ko'plab tadqiqotchi-pedagoglar shug'ullanishgan. N.A. Rau, B.D. Korsunskaya, A.A. Katayeva, N.G. Morozova, T.I. Obuxova ishlariga asoslanib aytish ma'lum xulosalar qilish mumkin bo'ladi. Bunday bolalarga ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalarida maxsus ta'lim va tarbiya talab etiladi, garchi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining umumiy yo'nalishlari sog'lom bolalarniki bilan umuman mos keladi.

“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”da, “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda ta’kidlanganidek, respublikamizda barcha fuqarolar teng huquqqa ega. Alohida yordamga muhtoj bolalar ham jamiyatimizning teng huquqli fuqarolaridir.

Inson huquqlarini himoya qilish deganda, huquqlarining qonuniy amalga oshirilishini ta'minlovchi choralar yig'indisi tushuniladi. Uning tarkibiga subyektiv huquqlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sharoit va muhitni yaratishga qaratilgan nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy, siyosiy va boshqa tisdagi choralar kiradi. Huquqni himoya qilishning huquqiy choralari jumlasiga esa, fuqarolik muomalasiga qonuniy, buzilmagan holda rivojlanishini ta'minlanishiga yordam beruvchi barcha choralar kiradi, masalan, subʼyektlarning fuqarolik huquq layoqatini mustahkamlash, majburiyatlarni belgilash, buzilgan huquq va manfaatlarni tiklash kabilardir.

Bola huquqlarining milliy himoyasi ayni paytda inson huquqlarini xalqaro himoya qilishning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi bola huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ko'plab xalqaro shartnomalarda ishtirok etib kelmoqda.

Inson huquqlari Butunjahon deklaratsiyasi, “Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiya kabi va boshqa xalqaro huj- jatlarni ratifikatsiyalash va ularni milliy qonunchilikka implimentatsiya qilish yuzasidan respublikamizda juda ko'plab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasining 4-moddasida bola huquqlarini himoya qilish sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sanab o'tilgan bo'lib, unga ko'ra bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash; bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish; bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik; bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish; bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash; bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish; bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash; bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha davlat tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash va boshqalardan iboratligi mustahkamlab qo'yilgan.

Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirib borish zamon talabidir.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan yordamga muhtoj bolalar davlatimizning teng huquqli a'zolari. Ularni uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha muassasalarda hamma qatori ta'lim olishi va tarbiyalanishini ta'minlash bizning asosiy vazifalarimizdan biridir.

## **XULOSA**

Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, qabul qilinayotgan qonunlar, har qanday normativ-huquqiy hujjatlar, huquq sohasida bo'ladigan o'zgarishlardan to'liq tarzda xabardor bo'lib, o'rganib chiqilishi natijasida eshitishida nuqsoni bor

o'quvchilarning huquqiy ong va tushunib yetib unga amal qilinishi esa huquqiy madaniyatni shakllantiradi. Huquqiy madaniyatning yuksak darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir.

Eshitishda nuqsoni bor bolalarning huquqlari albatta davlat himoyasidadir, ya'ni oddiy sog'lom bolalar kabi ularning ham huquq va erkinliklari mavjud. Ularning huquqlarini eslatish esa biz va boshqa fuqarolarning insoniy burchidir. Zero alohida yordamga muhtoj bolalarning huquqlari buzila unga nisbatan befarq bo'lmasligimiz kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Qonunchilik palatasining 2007-yil 23-noyabrda qabul qilgan "Bola huquqlari kafolatlari" to'g'risidagi Qonun.

2. Pulatova D.A. "Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'quv faoliyatiga motivatsiyasini oshirishda axborotkommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish". "Экономика и социум" №1(92)-2 2022. 515-b.

3. Umida Nosirova. "Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqini rivojlantirish yo'llari". Academic Research in Educational Sciences, 2021. 229-b.

4. U. Gadjixanov A. Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2-tom. Toshkent 1998. 195-b.

5. Boymirzayeva Raximaxon. "Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida pedagoglarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirishning samarali usullari". USLUBIY QO'LLANMA.Namangan.NVXTXQTMOHM.2021.

6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

7. [www.aim.uz](http://www.aim.uz)

8. [www.cyberleninka.uz](http://www.cyberleninka.uz)

9. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)